

**ILM FAN TARAQQIYOTIDA RAQAMLI IQTISODIYOT VA
ZAMONAVIY TA'LIMNING O'RNI HAMDA RIVOJLANISH
OMILLARI**

**Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va
zamонавиј та'лимнинг о'рни хамда ривожланиш омилари**



TDIU Moliya va buxgalteriya hisobi fakulteti talabasi

Djullibayeva Dildora

TDIU Statistika kafedrasи dotsenti

Akbarova Barno

Annotatsiya: Mazkur maqolada respublikamiz ilm fan rivojlanishida raqamli va zomanaviy ta'limning o'rni hamda ilm fan taraqqiyoti o'sishini tahlil qilish orqali ilm fan rivojlanishining ustuvor strategiyalari aniqlangan. Shuningdek, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi uchun ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va yangi texnologiyalarni ishlab chiqish juda muhimdir. Shuningdek, ta'lim tizimining zamonaviylashtirilishi, raqamli vositalar va platformalar yordamida ta'limning sifati va ta'siri oshishi kerakligi keltirilgan. Raqamli iqtisodiyotga o'tishning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun bilim, malaka va kompetensiyalarni oshirishga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: ilm fan taraqqiyoti, raqamli iqtisodiyot, zamonaviy ta'lim, oliy ta'lim tizimi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, masofaviy o'qitish tizimi.

Kirish

Бугунги кунда рақамли технологиялар ҳаётнинг барча соҳаларида фаол қўлланилмоқда. Хозирги кунда Юртимиздаги нуфузли олийгохлар ҳамда хусусий ўқув марказлари ҳам замон талабидан келиб чиқсан ҳолда

онлайн таълимни йўлга қўйди. Бу жараённинг ўзи ҳам мамлакатимиз таълим тизимида янги босқич бошланганини англаади.

Рақамли жамият ва рақамли иқтисодиётга ўтиш даврида олий таълимнинг келажаги ва ривожланиш истиқболлари рақамлаштириш жараёнлари билан бевосита боғлик. Бу эса ўз ўрнида жамиятда илм-фан ва таълимга рақамли технологияларига асосланган янги муносабатлар шаклланишига асос бўлди.

Рақамли технологияларни таълим жараёнига киритилиши Давлатимизнинг таълим соҳасида бир қанча имкониятлар яратилишига эришилади. Жумладан: таълим-тарбия жараёнини шафофлик, очиқлик ва тизимлилигини кенгайтиради, таълим ва тарбиявий билим ва кўникмаларни тақдим этиш имкониятларини сезиларли даражада оширади, катта хажмли ахборотлар билан ишлаш таъминланади. Инсоннинг замонавий ахборот маконига мослашиши ва ахборот маданиятини шакллантиришга замин яратади ва таълим жараёнини диагностика ва мониторинг қилиш тизимини янада самарали бўлишини таъминлайди, педагогик меҳнат сифатини оширишга имкон яратади.

Ilm-fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta'limning o'mi hamda rivojlanish omillari juda muhim ahamiyatga ega. Raqamli iqtisodiyot, texnologik yangiliklar va innovatsiyalar yordamida iqtisodiy jarayonlarni yanada samarali va tezkor qilishga imkon beradi. Bugungi kunda raqamli transformatsiya nafaqat biznes sohasini, balki ta'lim tizimini ham o'zgartirmoqda. Zamonaviy ta'lim esa, axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali ta'lim sifatini oshirish, yangi bilimlarni tezkor tarqatish va global miqyosda o'qitish jarayonini rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolada respublikamiz ilm fan rivojlanishida raqamli va zomanaviy ta'limning o'rni va uni ta'limda кўллаш, уларнинг имкониятларини таҳлил қилиш асосида ўқув жараёнини ривожлантиришнинг устувор йўналишларини аниқлаш мақсади қўйилган бўлиб, унда рақамли технологияларнинг таълим соҳасида нафақат муҳим ўрин эгаллаши ва қандай шаклда жорий этилиши бўйича таҳлиллар амалга оширилди. Тадқиқот усуллари сифатида олий таълимда рақамли технологияларни жорий этишга илмий асосланган ёндашувни шакллантиришга тегишли хуносалар тузишда норматив хужжатларни, мавжуд бўлган амалиётни ўрганиш, тизимлаштириш ва умумлаштиришдан фойдаланилди. Raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta'limga oid mavjud tadqiqotlar, maqolalar, kitoblar va boshqa manbalarni o'rganish orqali soha bo'yicha keng qamrovli ma'lumotlar yig'ildi.

Tahlil va natijalar